

ASHTARXONIYLAR MEMORCHILIGI O'ZIGA XOSLIGI

Mustafayev Voxidjon Zoxidjon o'g'li

Aniq va Ijtimoiy Fanlar Universiteti

2-kurs magistranti

vohidmustafaev@gmail.com

+998994488097

Annotatsiya: *Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasi davrida olib borilgan memorchilik ishlari rivoji, me'morchilik an'analari, memorchilikda qanday uslublardan foydalanganliklarini hozirgacha dunyo aholisi va olimlarni lol qoldirmoqda. Maqolada shu haqida malumot beramiz.*

Kalit so'zlar: *Buxoro, Samarqand, Registon maydoni, Ubaydullaxon, Abdulazizxon, Labi Xovuz, Nosirxon To'ra, Subhonqulixon, Nodir Devonbegi madrasasi,*

Buxoro Shayboniylar sulolasi taxtdan ketib, ashtarxoniylar sulolasi vakillari hokimiyat tepasiga kelgandan keyin ham o'zining poytaxt maqomi va rolini saqlab qoldi. Buxoro xonligi tasarrufiga kirgan hududlarida shaharsozlik va me'morchilik avvalgi mahobat bilan bo'lmasa-da ancha rivoj topdi. Ko'plab ma'rifiy va ma'muriy xo'jalik binolari, jumladan, masjid, madrasa, karvonsaroy, bozor, xonaqoh va hammomlar barpo etildi.¹ Buxoro karvon yo'llari kesishmasida joylashgan muhim ahamiyatga ega shahar sanalganligi uchun bu shaharda xo'jalik, ma'muriy va madaniy ahamiyatga ega. Buxoroda sulolalar almashinuvi ko'p kuzatilgan bo'lishiga qaramay, shaharda qurilgan binolar o'zining bezak uslublari, foydalanish jihatlariga ko'ra o'zgarib borgan. Buxoro va Samarqand shaharlarida me'morchilik binolarida avval mavjud

¹ Semenov A. A. K voprosu o proiskhozhdenii i sostave uzbekov Sheybani-khana // Trudy akademii nauk Tadzhikskoy SSR. Tom XII. 1953. — С.3-37

bo‘lgan an‘analardan foydalanilgan va ularga qisman o‘zgartirishlar kiritib me‘morchilik ishlari olib borilgan.²

Ubaydullaxon poytaxni Buxoroga ko‘chirgach qurilish shahriga aylandi. Buxoroda Abdulazizxon, Ubaydullaxon madrasalari, Boqi Muhammad, Ubaydullaxon masjidlari, Subhonqulixon Registonda qazdirgan quduq, Dor ash-shifo, Balxda Nodir Muhammad va Subhonqulixon madrasalari, uning atrofida chorbog‘lar, Balx arkidagi imoratlar, hazrati Ali mozoridagi gumbaz, Samarqabdagi dunyoga mashhur ‘‘Registon’’ maydoni va boshqa inshootlarni misol qilishimiz mumkin.³ Ashtarxoniylar davrida Buxoro me‘morchilik maktabi namoyondalari tomonidan barpo etilgan inshootlarda alohida o‘ziga xoslik mavjud bo‘lib, ular bir-birini takrorlamaydi, ya‘ni har biri alohida geometrik (aniqrog‘i stereometrik) chizmalar asosida qurilgan. Me‘morchilik inshootlarining interer qismlari yangi bunyod etilayotganlari uchun rivojlanish yo‘lida manba bo‘ldi va bu an‘ana keyingi davr tarixiy yodgorliklariga ko‘chib o‘tdiganiga guvoh bo‘lamiz.⁴

XVII asr boshlarida Shayboniy Abdullaxon II davrida erishilgan me‘morchilik yutuqlardan kam foydalanilib, asosan Temuriylar davri me‘moriy inshootlariga taqlid kuchaya borgan. Shubilan birga yirik ansambllar barpo etish an‘anasi qayta tiklana bordigan. Ashtarxoniylar davriga kelib monumental qurilishlar kamaysa-da, shaharning markaziy qismlarida vujudga kelayotgan ansambllar o‘ziga xosligi va betakrorligi bilan alohida ajralib turavergan. Jumladan, Labi Xovuz ansambli fikrimiz isboti. Abdulazizxon madrasasi bunyod etilishi bilan Buxoroda qo‘sh madrasalar soni yana bittaga ortgan. Umuman madrasa bezaklari yuksak san‘at va mahorat bilan ishlangan. Katta peshtoq nafis va nodir koshinkori naqshlar bilan ziynatlangan. Islimiy naqshlar qatorida afsonaviy jonivorlar tasviri ham berilgan. Madrasa hujralari, ayniqsa, janubiy ayvon peshtoqi turli-tuman naqshlar bilan bezatilgan. Gumbaz shipining ganchli muqarnaslari orasida islimiy naqshlar va kundal uslubidagi bezaklar

²To‘rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro : Durdona, 2020. – 168-169 b.

³. Эшов Б, Одилов А. Ўзбекистон тарихи, I –жилд. – Тошкент: 2014. – 402 б.

⁴. Barakayev J., Haydarov Y. Buxoro tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. - 79-80 b.

mavjud. Naqshlar, asosan, moviy rang bo‘yoqlar bilan chizilgan. Asosiy o‘lchami: atrof aylanasi — 50x67 metr, hovli — 28x35 metr. Abdulazizxon madrasasi sirtidan qaraganda Ulug‘bek madrasasi kabidir: bu madrasa kompozitsiyasi ham uzunchoqroq bo‘lib, old tomonining markazida ravoqli peshtoq, burchaklarida burj — guldastalar ishlangan, 2 qavatli yon qanotlar, kiraverishdagi xonalar va hovli chor atrofidagi 2 qavatli qator ravoqlar tizmasi ham o‘xshab ketadi. Ammo, Abdulazizxon madrasasi yirikroq va murakkabroq loyihalashtirilgan. Yon tomonlarining markaziy qismi 2 qavatli hujralar bilan urg‘u berib, biroz tashqariga bo‘rttirib chiqarilgan va hovli kompozitsiyasi bilan peshtoq yordamida uyg‘unlashtirilgan. Burchaklardagi beshqirrali yo‘laklardan shu burchaklardagi bir qancha katta-kichik hujralarga o‘tilagan. Aql idrok bilan qilingan ish natijasida qurilish maydonining har bir kvadrat metridan to‘la foydalanilgan va XIV—XV asrlarga xos g‘isht terish uslubiga yangilik kiritilgan Madrasa XVII asr Buxoro mahobatli me‘morligining yetuk namunasi. Bundan tashqari, 1617-yilda Registon maydonida Poyandabiy masjidi barpo etiladi. 1637-yilda esa Mag‘oki Ko‘rpa masjidi qad ko‘tarildi. Hukmdor qarorgohi sanalmish Ark qo‘rg‘onida joniylar hukmronligi davrida ko‘plab inshootlar qad rosladi. Bu haqda Nosirxon To‘raning “Tahqiqoti Arki Buxoro” kitobida etarlicha ma‘lumotlarni uchratishimiz mumkin.⁵ Masalan, Abdulazizxon davrida barpo etilgan Marosimxona binosi, Subhonqulixon davrida qad ko‘targan Jome’ masjidi binolari shular jumlasiga kiradi. Buxoro shahrining Labi hovuz ansambli sharqiy qismida joylashgan Nodir Devonbegi madrasasi Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir Devonbegi (Nodir mirzo Tog‘ay ibn Sulton) tomonidan bunyod etilgan. U yuz urug‘i boshliqlaridan bo‘lib, XVI asr oxiri –XVII asr boshlarida yashab faoliyat ko‘rsatgan. Madrasa 1622-1623-yillar oralig‘ida bunyod etilgan. Me‘moriy obida Sharq me‘morchiligi an‘analariga tayangan, naqshinkor, “Chor” uslubida qad ko‘targan. Memorchilik Imomqulixon davriga to‘g‘ri XVII asrda Samarqand Registon ansamblining hozirgi

⁵ . Qodirov A.A. Tibbiyot tarixi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti – Toshkent: 2005. – 145 b.

qiyofasi shakllantirildi. Imomqulixon davriga to'g'ri keladi. Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir 1619-1635-yillarda Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi qarshisida, vayron etilgan xonaqoh o'rnida Sherdor madrasasini, 1646-1659-yillarda Tillakori masjid-madrasasini barpo ettiradi. Samarqand Registon ansambli o'zining hashamati rang-barang koshinkor bezaklari, naqshinkor peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O'rta Osiyo me'morchiligining noyob tarixiy yodgorligi sanaladi. Abdulazizxon hukmronligi davrida me'morchilik sohasiga alohida e'tibor qaratilib, Buxoroda o'z nomi bilan va Volidai Abdulazizxon, Samarqandda Tillakori madrsalarini barpo ettiradi. Ular orasida tashqi peshtoqi muqarnasi betakror sanaladigani bu Buxoro shahridagi Abdulazizxon madrasasi sanaladi. O'rta osiyo mem'orchiligining XVII asrdagi g'oyat ulkan me'morchilik namunasi haqida Pugachenkova hamda Rempelning "Ocherki iskusstva Sredney Azii" kitobida etarlicha ma'lumot berilganiga guvoh bo'lamiz.⁶ Shuningdek, hukmdor o'z davrida qo'lyozmalar kutubxonasini tashkil etadi. Abdulazizxon tomonidan barpo etilgan Mirakon, Bozori Go'sfand, Xiyobon madrasalarining ayrimlari bizning davrimizgacha etib kelgan. O'rta Osiyo me'morchiligining noyob namunasi sanalgan Abdulazizxon madrasasi tashqi intereri o'ta nozik did bilan ishlanganligi bilan alohida boshqa inshootlardan ajralib turadi. Unda bir-biriga yaqin bo'lgan ranglar uyg'unligi muqarnas qismida ajoyib manzara kasb etib turadi.⁷ Madrasada ishlatilgan hamma bezaklar – yangi va qadimgi usullarning uyg'unligi qo'llanilishining ensiklopediyasi deb hisoblash mumkin. Sababi ajoyib va husunkor ushbu madrasaning kitobalari uch xil usulda bezatilgan.

O'zbekiston me'morligi tarixini o'rganish yo'lida anchagina samarali tadqiqotlar bajarildi. Ayniqsa, me'morlik bunyodkori xalq me'morlari ijodini o'rganish natijasida qadim zamonlardayoq unut bo'lgan ba'zi me'moriy qonun-qoidalar siru-asrori ochildi. Hatto uzoq Misrdagi piramida ehromlar loyihasi

⁶ Zaxidov P., Traditsii narodnix zodchix O'zbekistana: M., 1964; Vseobshaya istoriya arxitekturi, t., 1-12,

⁷ Buxoro — Sharq durdonasi. Toshkent: Sharq, 1997 — 232-bet.

haqidagi keyingi ikki asr davomida olimlar bahs etib kelayotgan muammo o'zbek xalq me'morlari amalida saqlanib qolgan me'moriy alqonun-ulgutarh orqali oson yechimini topdi.

O'zbekiston me'morligining asrlar davomida avlodan-avlodga o'tib kelayotgan an'analari, qonun-qoidalari XIX asr — XX asr boshlaridagi mustamlaka davrida keskin zarbaga uchradi. Me'morlik ijodkorlari ma'muriyat talabi ostida ishlashga majbur bo'ldi. Me'morlikda ba'zi yangiliklar qatori qorishiq turli uslublar (rus, yevropa va boshqalar) kirib kelayotgan kapitalistik talablar bilan hamohang bo'ldi. Yosh avlodga yetkazishga ularni asrab-avaylashga yoshlarda vatanparlik ruhini uyg'otishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azamat Ziyov — "O'zbek davlatchiligi tarixi" — 2000-yil.
2. Q. Usmonov, U. Jo'rayev, N. Norqulov — "O'zbekiston tarixi" — 2014-yil.
3. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: Н. Норкулов. — Т.: 2009
4. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий / Форс-тожик тилидан Нарзулла Йўлдошев таржимаси. - Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2003.
5. Бухоро Шарқ дурдонаси. Муаллифлар жамоаси. - Тошкент: Шарқ 1997.
6. Ўзбекистон тарихий обидаларидаги битиклар. Бухоро/ Муаллифлар жамоаси. - Тошкент: Uzbekistan Today, 2016.
6. Zamonov A. Buxoro xonligining Ashtarxoniy hukmdorlari: monografiya. Toshkent: Bayoz, 2021
7. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. - Москва: Искусство, 1982..

8. Бухоро Шарқ дурдонаси. Муаллифлар жамоаси.-Тошкент: Шарқ 1997. - Б. 99. Ўзбекистон тарихий обидаларидаги битиклар. Бухоро/ Муаллифлар жамоаси. -Тошкент: Uzbekistan Today, 2016. -Б. 538.
9. Амонов А. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви (XVI аср). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2018.
10. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: Н.Норкулов. – Т.: 2009 - 330 бет.
11. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий /Форс–тожик тилидан Нарзулла Йўлдошев таржимаси. - Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2003. – 343 бет.
12. Temirov F., Umarov B. Practical application of family, marriage and inheritance rights in bukhara emirates // Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 1. - S. 1201-1207.
13. Temirov F. Halikova N. From the history of foreign policy and development of diplomacy in the emirates of bukhara // Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 1. - S. 1276-1282;
14. Rajabov O. Qizbibi va Hazrat Bibi manzilgohlari muqaddas qadamjo sifatida / ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.